

O'zbekiston Respublikasida demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yil 1-iyul holatiga **ro'yxatga olish natijalarisiz** O'zbekistonning doimiy aholisi soni **38 519,5** ming kishini tashkil qildi va bu 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,7** foizga o'sishni ko'rsatdi. 2026-yilning yanvar-iyun oylarida tirik tug'ilganlar soni **373,4** ming kishini, vafot etganlar soni **86,9** ming kishini tashkil etdi, tabiiy o'sish esa **286,5** ming kishiga yetdi. Xorijdan kelganlar soni **1 649** nafarni, xorijga ketganlar soni esa **5 422** nafarni tashkil qilgan. Shu davrda **92,3** mingta nikoh va **24,8** mingta ajrim qayd etildi.

Doimiy aholi soni

38 519,5 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

373,4 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

86,9 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

1 649 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

5 422 *kishi*

Nikohlar soni

92,3 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

24,8 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Doimiy aholi soni shahar joylarida **19 608,9** ming kishini (jami aholining **50,9** foizi), qishloq joylarida esa **18 910,6** ming kishini (**49,1** foizi) tashkil etdi. Shundan **19 118,9** mingtasi ayollar (**49,6** foiz), **19 400,6** mingtasi erkaklar (**50,4** foiz)dan iborat.

1- iyul holatiga doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	37 859,7	38 519,5	101,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 040,7	2 061,5	101,0
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	3 487,9	3 545,4	101,6
Buxoro	2 089,4	2 117,2	101,3
Jizzax	1 551,7	1 579,0	101,8
Qashqadaryo	3 673,7	3 745,6	102,0
Navoiy	1 103,3	1 118,5	101,4
Namangan	3 158,4	3 213,6	101,7
Samarqand	4 335,7	4 413,7	101,8
Surxondaryo	2 974,4	3 037,0	102,1
Sirdaryo	938,5	952,6	101,5
Toshkent	3 134,1	3 189,5	101,8
Farg'ona	4 181,0	4 254,2	101,8
Xorazm	2 045,7	2 079,5	101,7
Toshkent sh.	3 145,2	3 212,2	102,1

O'zbekistonda 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, mamlakat bo'yicha aholi zichligi bir kvadrat kilometrda **85,8** kishini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davri bilan solishtirganda **1,5** kishiga ko'pdir (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.kmga **84,3** kishi to'g'ri kelgan).

1-iyul holatiga aholi zichligi, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Doimiy aholi soni \(jami, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(ayol, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(erkak, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(qishloq, choraklik\)](#)


[Aholi zichligi \(jami, choraklik\)](#)

III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Respublikamizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida tirik tug'ilganlar soni **373,4** ming kishini, tug'ilish koeffitsiyenti esa har ming aholiga **19,6** promilleni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 2026-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **32,1** ming kishiga kamaydi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'limlar soni **86,9** ming kishini, har ming aholiga to'g'ri keladigan o'lim koeffitsiyenti esa **4,6** promilleni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan joriy yilning yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni **2,8** ming kishiga oshdi.


Yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Ko'rib chiqilayotgan davrda respublika bo'yicha tirik tug'ilganlar soni jami **373,4** ming kishini tashkil etdi. Shundan **192,9** ming nafari (tug'ilganlarning umumiy soniga nisbatan **51,7** %) o'g'il bolalar, **180,5** ming nafari (**48,3** %) esa qizlardir. Ularning **182,9** ming nafari (tug'ilganlarning umumiy soniga nisbatan **49,0** %) shahar joylarda, **190,5** ming nafari (**51,0** %) qishloq joylarda dunyoga kelgan.

Mazkur davrda respublika bo'yicha vafot etganlarning umumiy soni **86,9** ming kishini tashkil qildi. Shundan **48,3** ming nafari (vafot etganlarning umumiy soniga nisbatan **55,6** %) erkaklar, **38,6** ming nafari (**44,4** %) ayollardir. Ularning **47,3** ming nafari (vafot etganlarning umumiy soniga nisbatan **54,4** %) shahar joylarda, **39,6** ming nafari (**45,6** %) esa qishloq joylarda yashovchilar bo'lgan.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslari bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tug'ilganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Tug'ilganlar soni \(qiz bolalar, choraklik\)](#)

[Tug'ilganlar soni \(o'g'il bolalar, choraklik\)](#)

[Vafot etganlar soni \(jami, choraklik\)](#)


[Vafot etganlarning asosiy o'lim sabablari \(jami, choraklik\)](#)

IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

O'zbekistonda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida **92,3** mingta nikoh qayd etildi va har ming aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil qildi. Nikohlar soni 2025-yilning mos davriga nisbatan **3,0** mingtaga kamaygan.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida **24,8** mingta ajrim qayd etildi, har ming aholiga nisbatan ajrimlar koeffitsiyenti **1,3** promillega teng bo'ldi. 2026-yilning yanvar-iyun oylaridagi ajrimlar soni 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,5** mingtaga oshgan.


Yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar va ajrimlar soni, ming birlik



Respublikamizda qayd etilgan nikohlar soni **92,3** mingtani, shundan shahar joylarida **47,2** mingtani (**51,1** %), qishloq joylarida **45,1** mingtani (**48,9**%) tashkil etdi.

Ajrimlar soni **24,8** mingtani, shundan shahar joylarida **14,9** mingtani (**60,1**%), qishloq joylarida **9,9** mingtani (**39,9**%) tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar va ajrimlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tuzilgan nikohlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Tuzilgan nikohlar soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Tuzilgan nikohlar soni \(qishloq, choraklik\)](#)

[Ajrimlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Ajrimlar soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Ajrimlar soni \(qishloq, choraklik\)](#)

V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlarning jami soni **185 570** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **183 921** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **1 649** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlarning jami soni **189 343** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **183 921** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **5 422** kishini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
O'zbekiston Respublikasi	185 570	183 921	1 649	189 343	183 921	5 422
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 094	7 979	115	10 331	8 432	1 899
viloyatlar:						
Andijon	7 180	7 169	11	8 534	8 507	27
Buxoro	7 885	7 872	13	10 513	10 454	59
Jizzax	5 515	5 503	12	7 177	7 127	50
Qashqadaryo	9 749	9 744	5	14 431	14 410	21
Navoiy	9 884	9 853	31	11 604	10 401	1 203
Namangan	3 643	3 630	13	5 385	5 348	37
Samarqand	10 264	10 242	22	13 215	13 167	48
Surxondaryo	7 368	7 350	18	10 361	10 352	9
Sirdaryo	5 045	5 030	15	5 900	5 861	39
Toshkent	27 131	26 862	269	18 878	17 447	1 431
Farg'ona	10 671	10 656	15	12 047	12 019	28
Xorazm	8 641	8 620	21	10 612	10 533	79
Toshkent sh.	64 500	63 411	1 089	50 355	49 863	492

Yanvar-iyun oylarida xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'chib kelganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Ko'chib ketganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda tegishli ma'muriy axborot tizimlari o'rtasida idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur barcha ma'lumotlar integratsiya yo'li bilan elektron shaklda olinayotganligi sababli, statistik kuzatuvning alohida shakli tasdiqlanmagan.

Statistika organlari demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish uchun boshqa davlat organlari (Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati hamda migratsiyasi to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlarni qayta ishlaydi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlari quyidagi ma'muriy ma'lumotlar manbalari asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Foydali havolalar

[Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma'lumotnomalarini kodlashtirish bo'yicha qo'llanma](#)

[Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom](#)

